

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK:330.13:331(575.1)

TOSHTEMIROV SHOHRUH TOSHPO‘LATOVICH

**AHOLINING REAL DAROMADLARINI DAVLAT TOMONIDAN
TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Xajiyev Baxtiyor Dushabayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I bob. AHOLINING REAL DAROMADLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	14
1.1. Aholining real daromadlarini tartibga solish tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati.....	14
1.2. Aholi daromadlarini tartibga solish mazmunining rivojlanish evolyutsiyasi.....	48
1.3. Aholi real daromadlari oshirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....	57
1-bob bo'yicha xulosalar.....	64
II bob. O'ZBEKISTONDA AHOLI DAROMADLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING HOLATI VA KO'RSATKICHLARI.....	67
2.1. Aholining real daromadlarini tartibga solishning hozirgi holati tahlili	67
2.2. Davlat tomonidan minimal ish haqi va boshqa daromad ko'rsatkichlarini tartibga solish choralari.....	77
2.3. Aholi real daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash.....	89
2-bob bo'yicha xulosalar.....	99
III bob. AHOLINING REAL DAROMADLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	101
3.1. Aholining real daromadlarini oshirish bo'yicha davlatning tartibga solish mexanizmlarining ahamiyati.....	101
3.2. Xorijiy davlatlarda aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish tajribasi.....	108
3.3. Aholining real daromadlarini oshirishning strategik rivojlanishini baholash.....	122
3-bob bo'yicha xulosalar.....	140
XULOSA.....	141
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	143

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi daromadlarini oshirish, aholi daromadlari stratifikatsiya jarayonlarini baholash orqali mavjud muammolarni hal etish yo‘nalishlarini ishlab chiqish, mintaqalar iqtisodiyotida iqtisodiy o‘shish sifati parametrlariga aholi daromadlari tabaqalanishining statistik bog‘liqligini aniqlash asosida iqtisodiy-ijtimoiy holatni baholash muhim vazifalardan hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, xalqaro moliyaviy iqtisodiy tashkilotlar, nodavlat assotsiatsiyalarning faoliyatini bosh maqsadlaridan biri aholini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish borasida aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish hisoblanadi. XXI asr boshlarida dunyodagi kambag‘allar soni 689 million kishini yoki dunyo aholisining 9,2 foizini tashkil qildi. Biroq, COVID-19 pandemiyasi, mintaqaviy mojarolar va iqlim o‘zgarishi tufayli global qashshoqlik yuqori darajaga ko‘tarildi. 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Jahon banki qo‘shimcha 88-115 million kishi kambag‘allik darajasiga tushib qolishini va ularning umumiy soni 703 milliondan 729 millionga yetishini prognoz qilmoqda. Shuningdek, kambag‘allik geografiyasi qashshoq Afrika davlatlaridan o‘rta daromadli mamlakatlarga qadar kengayib bormoqda, prognozlarga ko‘ra, 2022-yilning boshiga kelib kambag‘allarning soni 82 foizgacha o‘sishi taxmin qilinmoqda¹.

Jahonda aholi real daromadlarining keskin tushib ketishi va kambag‘allikning tarqalishining yangi to‘lqini, birinchi navbatda, pandemiya davridagi karantin cheklavlari tufayli global iqtisodiyotdagi inqiroz bilan bog‘liq hisoblanadi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) 2022-yil yanvar hisob-kitoblariga asosan 2021-yilda jahon iqtisodiyoti o‘shish sur‘ati 5,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. 2022-yilda esa 4,1 foiz sekinlashuvi prognozlashtirilmoqda². Global iqtisodiy o‘shishning sekinlashishi bilan aholi kambag‘alligini qisqartirish va turmush sharoitlarini

¹ Jahon banki ma’lumotlari asosida <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/topic/poverty/brief/global-poverty-line>

² Перспективы мировой экономики - Jahon banki ma’lumotlari worldbank.org

yaxshilash yanada qiyinlashadi. 2030-yilga borib kambag'allikni qisqartirish uchun mamlakatlar inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishishni maqsad qilgan siyosiy qarorlar qabul qilishlari kerak; ta'lim, sog'liqni saqlash, toza suv, oqava suvlarni tozalash inshootlari va aqlli infratuzilmaga sarmoya kiritishga ustuvor ahamiyat berish; eng kambag'allarga foyda keltirish va odamlarga qiyinchilik bilan erishilgan yutuqlarni himoya qilish va qurg'oqchilik, kasallik yoki iqtisodiy zarbalardan kambag'allikka qaytishga yordam berish zarur bo'ladi³. Natijada, Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) hisob-kitoblariga ko'ra, 2020-yilning ikkinchi yarmida jahonda 305 million to'liq ish o'rinlari yo'qolgan, ushbu ko'rsatkich 2019-yil oxiriga nisbatan 10,5 foizga kam.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uy joy bilan ta'minlash, bandligini oshirish, kam ta'minlangan oilalarga har tomonlama yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy siyosat bozor iqtisodiyotini shakllantirishning muhim shartlaridan biri sifatida belgilandi. Agar 2001-yilda O'zbekiston aholisi soni 24,8 mln nafarni tashkil etgan bo'lsa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdori 198,59 ming so'mni tashkil etgan holda kambag'allik darajasi esa 26,5 %ga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkichlar mutanosib ravishda 2021-yilga kelib quyidagicha o'zgardi, jami aholi soni 35,9 mln nafarni tashkil etgan holda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdori 17774,37 ming so'mga va kambag'allik darajasi esa 13,5 %ni tashkil etganligi, shuningdek, COVID-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan inqiroz bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatdi.

Mamlakat aholisining qariyb 9 foizi kambag'allik chegarasidan (Jahon banki tomonidan o'rta quyi daromadli mamlakatlar uchun hisoblab chiqilgan – 2021-yilda sotib olish qobiliyati pariteti bo'yicha har bir kishiga kuniga 3,2 dollar) pastda yashamoqda. Karantin cheklovlari joriy etilgan sharoitda ushbu muammo yanada keskinlashdi – yana bir millionga yaqin fuqaro kambag'allik chegarasidan pastga tushib qolishdi⁴. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev

³ Birlashgan millatlar tashkilotining ma'lumotlari asosida <https://news.un.org/ru/tags/bednost>

⁴ <https://www.gazeta.uz/uz/2021/04/02/pandemic-growth/#!>